

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

**Tahrir hay'ati**

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

**SHERMUHAMMADOV B.SH.**  
**ZOKIROV I.I.**

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)	LEEDONG WOOK (Janubiy Koreya)	BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	A'ZAMOV A. (O'zbekiston)	KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)	CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)	BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)	TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)
AXTARIYEVA R. (Rossiya)	RAKETIN O. (Rossiya)	TURAYEV A. (O'zbekiston)

**Tahririyat kengashi**

<b>IJTIMOYIY GUMANITAR FANLARI BO'YICHA</b>		<b>ANIQ VA TABIIY FANLAR BO'YICHA</b>	
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.	MAMAJONOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.(PhD)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	MAMAJONOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d (PhD)
TOJIBOYEVA H. (O'zbekiston)	Ped.ilm.tad.instituti. p.f.d.(Dsc)	ISOMIDDINOV F. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.
O'RINOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	SABIRDINOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
USMONOV B. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.	RAHIMOV Z. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.
DAVLYATOVA G. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.	XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d(PhD)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.	MIRZAYEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d(PhD)
XONKELDIYEVA G. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.	<b>ANIQ VA TABIIY FANLAR BO'YICHA</b>	
HOLMATOV B. (O'zbekiston)	FarDU, I.f.n.	O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
XAKIMOV N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d. dots.	KARIMOV Sh.T (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.dots.
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.	OTAJONOV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
USMONOV B. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d (DSc)	RASULOV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
MAXMUDOV O. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.prof (PhD)	ONARQULOVA K. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
ALIMOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d(PhD)	SHUHRATOV SH. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.b.f.d (PhD)
JO'RAYEV H. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d(PhD).dots.	ASQAROV I. (O'zbekiston)	AnDU, k.f.d.prof.
MAMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d(PhD).dots.	IBRAGIMOV A.(O'zbekiston)	FarDU, k.f.d.prof.
AHRORQULOV A. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.b.f.d(PhD)	MAMATQULOVA S. (O'zbekiston)	FarDU, k. f.b.f.d (PhD)
G'ANIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	ABDUG'ANIYEV O. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.n.
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	AXMADALIYEV Yu. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.d.prof.
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	YULDASHEV G. (O'zbekiston)	FarDU, q.x.f.d.
SHUKUROV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.d. dots.
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.doktori.	SHERALIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.d.(PhD)
UMAROVA N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.doktori.	SHERMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.n.

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona, 2023.**

<b>S.Inoyatova</b>	
Oilaviy munosabatlarda shaxsning milliy va umummadaniy dunyoqarashining shakllanishidagi shart-sharoitlar .....	210
<b>U.Qurbonov</b>	
Mishel Monten falsafasida gumanistik antropotsentrizm masalalari .....	215
<b>G.Ravshanova</b>	
Ta'lim –tarbiya muassasalarida axborot-kutubxona ishlarini tashkil etishning ma'naviy-axloqiy jihatlari .....	219
<b>O.O'roqova</b>	
Sharq romantizmining estetik xususiyatlari.....	222
<b>F.Rabbimova</b>	
Tasavvuf va futuvvat ta'limotlari haqida mulohazalar .....	225
<b>D.Axmedova</b>	
Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning asoslari .....	229
<b>N.Sabirov</b>	
Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari .....	234
<b>Sh.Murtozayev</b>	
Abu Hafs Umar Suhravardiy inson nafsini anglashga doir falsafiy qarashlarining tahlili.....	239
<b>I.M.Arzimatova</b>	
Ayol rahbar kadrlarning axloqiy va estetik madaniyatini rivojlantirishning falsafiy jihatlari .....	243
<b>A.A.Tojaliyev</b>	
Oliy ta'lim- Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti .....	248
<b>A.A.Abdumalikov</b>	
Innovatsion ekologik tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari .....	252
<b>O'.X.Rajabov</b>	
“Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirishda konsensus madaniyatining ahamiyati .....	256
	SIYOSAT
<b>M.U.Jo'rayev</b>	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish .....	261
<b>A.Xudayberdiyev</b>	
Globalashuv sharoitida xalqaro siyosat va missionerlik.....	266
<b>O.Majidov</b>	
O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha yangilangan siyosatning ayrim jihatlari va ijodiy xususiyatlari .....	271
<b>M.U.Jo'rayev</b>	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari .....	276
<b>Sultonov Javohir<sup>1</sup>, Mamajonov Farhod<sup>2</sup></b>	
Xalqaro munosabatlarda konstruktivizm nazariyasining o'ziga xosligi .....	282
<b>Museyibzada Jovhar Shamsaddin og'lu<sup>1</sup></b>	
Yevropa parlamentiga kirish va tahlil .....	288
	TAPIX
<b>I.G'ulomov</b>	
Turkistonda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri.....	295
<b>U.O'sarov</b>	
XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi qishloq xo'jaligida shohiyetishtirish va uning ahvoli.....	300
<b>F.Utayeva, B.Safarov</b>	
Buxoro ip-gazlama kombinatining qurilish tarixi va ishlab chiqarish faoliyati .....	306
<b>A.Usmonov</b>	
Badiiy hunarmandchilik bilan bog'liq nomoddiy madaniy meroslar .....	311
<b>A.Yarkulov</b>	
Arxeologiya parklarining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari .....	317
<b>B.Usmanov</b>	
Mustaqillik yillarida suv muammolarini bartaraf etishda davlat siyosati.....	323

<b>D.Abdullayeva</b>	
XX asrning 20-yillarida Buxoro me'moriy obidalarining ta'miroti masalasi .....	327
<b>F.Temirov</b>	
Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari.....	331
<b>I.Naimov</b>	
Ahmad Donish ilmiy merosida islom huquqi masalalari.....	336
<b>R.Rahimov</b>	
Yevropa noshirlik uylari vujudga kelish tarixiga nazar .....	340
<b>D.A.Choriyeva</b>	
Madaniyat sohasida oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar muammosi va yechimlar.....	345
<b>O.V.Mahmudov</b>	
O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniya shaharlarining o'rne: barselona, pamplona, saragosa va segoviya .....	356
<b>A.A.Hakimov, B.A.Usmanov</b>	
Amir Abdulloning Xorazm yurishi .....	363
<b>N.X.Choriev</b>	
Buxoro Amirligining janubiy hududlarida irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishi .....	368

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>I.Yakubov</b>	
"Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda .....	371
<b>P.Bakirov</b>	
Turli tizimli tillarda nominatsentrik maqollar mazmun plani .....	376
<b>I.Mannopov</b>	
Yassaviylik adabiyoti tahlili masalasi .....	382
<b>Q.Yo'lchiyev</b>	
Anvar Obidjon lirikasida semiotik xususiyatlar .....	386
<b>J.Eshonqulov</b>	
Hayrat Buxoriy ijodida ijtimoiy hayot va muhit tanqidining badiiy xususiyati .....	391
<b>T.Matyoqubova</b>	
Tuyg'u va kechinmani kitobxonga "yuqtirish" mahorati.....	397
<b>M.Qurbonalieva</b>	
Taqiuddin Muhammad Avhadiy "Arafot-ul-oshiqin" va Mutribiy Samarqandiy "Tazkirat-ush-shuaro" asarlarning qiyosiy tahlili .....	402
<b>I.Eshonqulov</b>	
Tazkiranavislar nuqtayi nazaridan Mirsiddiqxon Hashmatbuxoriy o'rnini anglash .....	408
<b>H.Ne'matova</b>	
Hoji Muinning "Kattaqo'rqon xotiralari" safarnomasi .....	416
<b>X.A.Xaitov</b>	
O'zbek adabiyotida lingvistika asosida kulgi uyg'otish masalasi .....	420
<b>Samadi Nooria</b>	
Maqollarning metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari .....	424
<b>A.G.Sabirdinov</b>	
Shuhrat she'rlariga bir nazar .....	430
<b>S.Muminov, Z.Kamoliddinova</b>	
Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida qo'llangan sinonimlarining lingvopoetikasiga doir.....	436

#### TILSHUNOSLIK

<b>Sh.Iskandarova, D.Qo'ldasheva</b>	
Furqat g'azallarida jonlantirishlarning ifodalanishi .....	442
<b>Sh.A.Ganiyeva</b>	
Frazeologik ma'no: kategorial va grammatik ma'no muammolari .....	446
<b>D.Yuldasheva, S.Nishonova</b>	
Maqollarda "bola" kontseptining ifodalanishi.....	450
<b>M.Saminjonov</b>	
Tilshunoslikda nutqiy janrlar va soha qasamlari masalasi.....	453
<b>O.Latipov</b>	

UDK: 94 (575.1):352.075.2(575.146)(092) Donish A. (04)

**AHMAD DONISH ILMIY MEROSIDA ISLOM HUQUQI MASALALARI**  
**ПРОБЛЕМЫ ИСЛАМСКОГО ПРАВА В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ АХМАДА ДОНИША**  
**PROBLEMS OF ISLAMIC LAW IN THE SCIENTIFIC HERITAGE OF AHMAD DONISH**

**Naimov Ismat Nusratilloveviya<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Naimov Ismat Nusratilloveviya

– Buxoro davlat universiteti, t.f.f.d., (PhD)

**Annotasiya**

*Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligida turli mansablarda faoliyat yuritgan va o'z navbatida serqirra faoliyati natijasi o'laroq mazmunli ilmiy meros yaratgan Ahmad Donishning qozilik faoliyati va uning mahsuli hisoblangan ilmiy merosi haqida ilmiy xulosalar ilgari surilgan. Muallif Ahmad Donishning shariat qonun-qoidalarini himoya qiluvchi sifatidagi qozilik faoliyati bugungi kunga qadar tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolganligini ta'kidlab, buyuk ma'rifatparvarning Buxoro amirligi qozilik mahkamasi xususidagi qarashlari va islom huquqiga oid fikrlarini ilmiy jihatdan tahlillab bergan.*

**Аннотация**

*В данной статье представлены научные выводы о деятельности судьи и научном наследии Ахмада Дониша, работавшего на различных должностях в Бухарском эмирате во второй половине XIX века и создавшего в результате своей активной деятельности значимое научное наследие. Автор подчеркнул, что работа судьи как защитника законов шариата осталась незамеченной исследователями, и научно проанализировал взгляды великого просветителя на суд Бухарского эмирата и его взгляды на исламское право.*

**Abstract**

*This article presents the scientific conclusions about the activities of the judge and the scientific heritage of Ahmad Donish, who worked in various positions in the Emirate of Bukhara in the second half of the 19th century and created a significant scientific heritage as a result of his active work. The author emphasized that the work of the judge as a defender of Sharia law remained unnoticed by researchers, and scientifically analyzed the views of the great educator on the court of the Bukhara Emirate and his views on Islamic law.*

**Kalit so'zlar:** Ahmad Donish, ma'rifatparvar, kotib, islom huquqi, qozi, qozikalon, qozixona, iymon mezonlari, ziyorat odoblari.

**Ключевые слова:** Ахмад Дониш, просветитель, секретарь, исламское право, судья, казикалон, казихана, критерии веры, паломнический этикет.

**Key words:** Ahmad Donish, educator, secretary, Islamic law, judge, qaziqalon, qazikhana, criteria of faith, pilgrimage etiquette.

**KIRISH**

VII asrning o'rtalariga kelib islom dini to'la to'kis shakllanib bo'lgach, musulmon olami vakillarining huquq va erkinliklari hamda amallarini tartibga soladigan me'yoriy huquq mezonlari vujudga keldi. Natijada shariat qonun-qoidalariga asoslangan va ularga tayanib faoliyat yuritadigan, mustaqil organ sifatida qaror topgan qozilik mahkamalari butun musulmon olamiga keng tarqaldi. Shu jumladan, qozilik mahkamalari bizning milliy davlatchiligimizda ham samarali faoliyat yuritib, fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini ta'minlaydigan nafaqat mazkur mahkamaga, balki uni yanada mukammal ishlashida o'z hissalarini qo'shgan mashhur qozilarga ham ishonch bildirib kelganlar. Shunday qozilardan biri, fuqarolar o'rtasida o'zining adolatparvarligi bilan hurmat qozongan, 1827-1897 yillarda yashab, serqirra faoliyat yuritgan ma'rifatparvar olim Ahmad Donish sanaladi. U o'zining qo'p qirrali faoliyati va Buxoro amirligini isloh qilishga oid takliflari bilan tanilgan qomusiy olim hamdir. Bugungi kunga qadar ma'rifatparvar alloma ilmiy merosini ko'plab tadqiqotchilar o'rganganliklarini kuzatish mumkin. Biroq olimning shariat qonunlari asosida ish ko'radigan qozilar va ularning kasbiy malakalarini oshirishga qaratilgan fikrlari hamda diniy qarashlari o'z ifodasini topgan ilmiy merosi tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolib kelmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ahmad Donish shaxsining qomusiyligi turli soha vakillarining e'tiborida bo'lib, uning faoliyati va yaratgan asarlarini o'rganishga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bunday faoliyat samarasi o'laroq vujudga kelgan ilmiy adabiyotlarni quyidagi guruhlariga ajratib, tahlil qilish

## TARIX

maqsadga muvofiq: 1) XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid asarlar; 2) sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar; 3) mustaqillik davrida O'zbekistonda nashr qilingan ishlar; 4) xorijiy mualliflar yaratgan tadqiqotlar.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Ahmad Donish bolaligidan ilmga chanqoq bo'lib, boshlang'ich ta'limni o'z onasi Sakina Abdurahmon qizidan o'rgangan. Otasi Nosir ibn Yusuf Ahmadning o'qishiga nihoyatda e'tibor beradi va dastlab uni mahalla maktabiga, so'ngra Mir Arab madrasasiga o'qishga beradi. Uning ta'lim olishiga sharoit yaratib, moliyaviy va ma'naviy jihatdan qo'llab turadi. Donish Mir Arab madrasasida dunyoviy bilimlar bilan birganlikda diniy bilimlarni ham mukammal egallashga harakat qiladi. Ajdodlarning ilmiy merosini kitobat qilish orqali o'z bilimlarni mustahkamlab mohir xattot bo'lib yetishadi. Natijada xushxatligining ovozasi saroygacha yetib borib, ustozlarining ko'magi bilan shaxsan amir Nasrulloxonning (hukmronlik davri: 1826-1860 yy.) shaxsiy kotibi sifatida saroy xizmatiga olinadi.

Saroydagi faoliyati davrida Peterburgga jo'natilgan amirning elchilari kotibi sifatida Rossiya imperiyasiga uch marotaba (1857, 1868, 1873 yy.) safarda bo'ladi. Safar chog'ida imperiyaning davlat tuzilishi va mudofaasi bilan tanishib, Buxoro amirligida kechiktirib bo'lmas islohotlar o'tkazish bo'yicha maxsus risola yozadi va uni amirga taqdim etib, ishlab chiqqan islohotnomasini amalda qo'llashda o'z xizmatini taklif etadi. Biroq amir Muzaffar (hukmronlik davri: 1860-1885 yy.) islohotnomaning mazmun-mohiyatiga yetmay, aksincha saroydan badarg'a qilish yo'llarini izlaydi. Ma'naviy tazyiqlar ostida salkam o'n yil, ya'ni Amir Muzaffar vafotiga qadar, dastlab G'uzor (1882 y.) va keyinchalik Narpay (1885 y.) tumanlarida qozilik qiladi. Zamondosh shoir Afzal Pirmastiyning ma'lumotiga ko'ra, Amir Abdulahad iltimosiga binoan poytaxt Buxoroga qaytib (1886 y.), vaqfdan keladigan daromadidan to'lanadigan oz miqdordagi nafaqa evaziga Ja'farxo'ja madrasasida kitobdorlik vazifasini bajaradi.

Donishning diniy-axloqiy yo'nalishdagi qarashlarining shakllanishida muhim o'rin tutgan qozilik faoliyati va uning natijasida vujudga kelgan ilmiy merosi hamda ularda ilgari surilgan ma'rifatparvarlik qarashlari hali yetarlicha ilmiy muomalaga kiritilmagan. Xususan, bulardan biri "Me'yor-ut tadoyyun" ("lymon mezonlari") asari hisoblanadi.

Ahmad Donish qozilik faoliyati davrida (1875-1886 yy.) saroydagi tashvishlardan xalos bo'lib, nihoyat ilm bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladi. "Navodir-ul-vaqoye"ni qayta tahrir qilib, kitob holatiga keltiradi. Unda qozilik davrida duch kelgan muammolarni aks ettirishni ham nazardan chetda qoldirmaydi. Xususan, bu haqda shunday yozadi: "Qalam ahllarining eng yuqori mansablari qozilik va raislikdir. Zamonga qaralsa, bu ikki o'rinda adolat bilan ish yuritib bo'lmaydi. Chunki, shariat ishlari ularning xohishlariga qarab yurgizilgach, bu ish zulm va xiyonatsiz bo'lishi mumkin emasdur. Bu amalda bo'lgan kishining boshi hech qachon tashvishdan chiqmaydi. Buning ustiga bu toifa egalari amaldorlik mansabini saqlab turish uchun o'rdadagi boshliqlariga doim "qo'l uchi" berib turadilar. Shuning uchun mening nafsım qozilik shavkati va savlatini ko'rib ham qimirlamadi".

Bundan xulosa qilish mumkinki, Donishda qozi lavozimiga tayinlanishda ishtiyoq bo'lmagan. Biroq ma'naviy tazyiqlar ta'sirida Buxorodan uzoqda bo'lishni ma'qul ko'rib, Amir Muzaffar vafotiga qadar shu amalda faoliyat yuritishga majbur bo'ladi. Faqatgina, Amir Abdulahad taxtni egallagandan so'ng, uning ahdida Buxoroga qaytadi. Shu paytdan boshlab, ilmiy faoliyatga jiddiy kirishadi va ilm-fanning turli sohalarida tadqiqotlarni amalga oshirib mazmunan boy asarlar yaratadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Ahmad Donish yashagan Buxoro amirligida qozilik mahkamasi alohida mustaqil tuzilma sifatida shakllangan bo'lib, qozilarning lovozim vazifalari nihoyatda keng bo'lgan. O'zbekiston Milliy arxivida saqlanilayotgan ma'lumotlarga ko'ra qozilar mamlakatning diniy va ma'naviy hayotiga daxldor bo'lgan masalalar bo'yicha ham mas'ul hisoblanishgan. Qurbon va Ramazon hayitlarining kunini belgilash hamda qamariy yil hisobi bo'yicha oyning to'lishi munosabati bilan turli marosimlarni o'tkazish ularning xulosalari nishonlangan.

Donish o'z ilmiy merosida ilm-ma'rifat va xalq xizmatiga yarash masalasini birinchi o'ringa qo'yadi. Har bir ish avvalambor ilm bilan bajarilishi va olimu-hukamol qadrlanishi kerakligi hamda bu hol mamlakat farovonligining kafolati ekanligi to'g'risida shunday yozadi: "Agar odam ishga yaroqli bo'lib, mansab va darajalarni egallashga qobiliyatli bo'lsa, buning ustiga ilm, fazl va aql egasi bo'lsa-yu, ammo mansab vazifasiga ko'tarilmagan bo'lsa va buning sabablarini izlashga

kirishmasa, bilsinlarki, bunday kishi eng oliy himmatli odamdur. Qachonki saltanat layoqatsiz kishilar qo'liga o'tsa, qozilik, raislik ilmsiz va savodsizlar qo'lida qolsa, ish ustidagilar insofsiz va diyonatsiz bo'lsalar, shunday odamlargina mansab va daraja uchun talashadilar. Oqil kishilar esa mansab va daraja talashib yurishni o'zlariga loyiq ko'rmaydilar. Shuning uchun noloyiq kishilar oqil odamlarning qadriga yetib, insofqa kelishlari lozim. Natijada oqillar nochor qolmay, davlatning har bir xayrli ishiga daxldorlikni ixtiyor qiladilar”.

Donish islom dinida nozik masala, ya'ni iymon va uning mezonlarini “Me'yor-ut tadoyyun” nomli tarixiy-diniy-axloqiy asari orqali kelajak avlodga tushuntirishga harakat qiladi. Ushbu asar hijriy 1311 (milodiy 1894 y.) yilda yozilgan bo'lib iymon va diyonat, poklik va unga erishish mezonlari, diniy aqidaparastlik va uning oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek, dunyo dinlarining mohiyati, islom mazhablari – shia va sunniylarning o'zaro ziddiyatlarining sabablari hamda birlari bilan murosaga kelish masalalari to'g'risida fikrlar bayon etilgan.

Asar muqaddima, 3 fasl va xotimadan iborat. Har bir fasl bir necha mavzularni o'z ichiga olgan. Alloma o'z fikrlarini ruboiylar va mazmunan teran hikoyalar keltirgan holda ifodalaydi va xulosalarini ular orqali mustahkamlashga harakat qiladi. Ushbu asar allomaning boshqa asarlaridan farqli jihati shundaki, Donish uni o'z tashabbusi bilan emas balki, Buxoro amirligining oliy qozisi Badriddin ibn Sadriddinning iltimosiga ko'ra yozilganligidir. Bu to'g'risida muallifning Qozi-ul-Quzzotga bag'ishlagan kichik tazkisasi dalolat beradi. Ta'kidlash lozimki, muallif ushbu risolasini maslakdoshlari orasida keng targ'ib etilishini maqsad qilib qo'ygan. Shu sababli, ma'rifatparvar Muhammad mir Siddiq Hashmatga qo'lyozmani taqdim etgan. U esa, risolani yozilgan yilida bir necha to'ldirilgan fikrlar bilan qayta ko'chirgan.

Donishning ziyorat odoblari to'g'risidagi fikrlari diniy ongning shakllanishida juda muhimdir. Ayrim e'tiqod qiluvchilarning uquvsizligi va boshqalarga ergashib ziyorat vaqtida Allohga shirk keltirishlarini islomga xos bo'lmagan va toqat qilib bo'lmaydigan amallar sifatida tanqid qiladi. Bu to'g'risida uning qozilik faoliyati davrida duch kelgan bir voqeasi ahamiyatlidir. Bayon etishicha, kunlarning birida nasaflik kishi unga murojaat qilib, Balxdagi Shohimardon maqbarasi ichida joylashgan Sulton Husayn Boyqaro qabrini ziyorat qilgani va u yerdagi odatlarga ko'ra maqbaraning kirish darvozasi ustida qo'l yetishidan balandroqda zanjir osilganligi, agarki ziyoratchi chiqish vaqtida mazkur zanjirga qo'lini uzatsa va u yetsa, ziyorati qabul bo'lganligining alomati ekanligini so'zlab beradi. Buni eshitib afsuslangan Donish ziyoratdagi salbiy odatlar, xususan qabr toshlarini o'pish, ularni masx etish va boshqa illatlar avj olganini tanqid qilib, maxsus ziyorat odoblari ifodalangan yo'riqnoma ishlab chiqish va uni keng targ'ib etish lozimligi haqida takliflarini bayon etadi.

### XULOSA

Xulosa qilib ayganda, Qozi mulla Mir Ahmad O'roq ibn Mulla Mir Nosir as-Siddiqiy muhri bilan faoliyat yuritgan Ahmad Donish o'zidan keng mazmunga ega ilmiy meros qoldirdi. Uning Buxoro amirligida (1756-1920 yy.) mustaqil tuzilma sifatida faoliyat yuritgan qozilik mahkamasi hamda qozilarning faoliyatiga bo'lgan munosabati ko'plab o'rinlarda salbiy bo'lsada, ular mazkur tizimni yanada isloh qilishga qaratilgan edi. Ta'kidlash joizki, Buxoro amirligida qozilarni tayyorlash va ularni tanlashda alohida e'tibor qaratilgan. Qozilar asosan fuqarolar o'rtasida hurmat qozongan va keng bilim sohibi bo'lgan shaxslar orasidan saralab olingan. Xususan, Buxoroning so'nggi qozikaloni Sharifjon maxdum Sadri Ziyo ham o'z zamonasining ma'rifatli kishilardan bo'lgan. Uning tashabbusi bilan nodir ko'lyozmalar qayta ko'chirilib, keyingi avlodga yetkazilgan.

### ADABIYOT RO'YXATI

1. Айнӣ С. Куллиёт. Ҷилди 7. – Душанбе: Нашриёти Давлати Тоҷикистон, 1962. – С. 32. (Aini S. Kulliyot. Volume 7. - Dushanbe: Tajik State Publishing House, 1962. - P. 32.)
2. Аҳмад Дониш. Наводирул вақое / Нодир воқеалар. – Тошкент: Фан, 1964 й. – Б. 361. (Ahmad Donish. Navodirul vaqoe / Rare events. - Tashkent: Science, 1964. - P. 361.)
3. Аҳмади Дониш. Наводир-ул-вақое. Китоби 1 (Таҳия, тасҳеҳу муқобала, тавзеҳот, луғатнома, феҳрести номҳо ва маконҳо аз Ҷ. Нарзиев, Б. Мирзоев ва И. Мирзоев), Матни илмии интиқодӣ. – Душанбе: Дониш, 2017. – С. 264. (Ahmad Donish. Nawadir-ul-Waqa. Book 1 (Compilation, revision and discussion, explanations, dictionary, list of names and places by J. Narziev, B. Mirzoev and I. Mirzoev), Critical scientific text. - Dushanbe: Donish, 2017. - S. 264.)
4. Аҳмад Маҳдум Дониш. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони манғития. – Душанбе: Сарват, 1992. - Б. 28. (Ahmed Makhdum Donish. A treatise or summary of the history of the khanate of the Mangitia family. - Dushanbe: Sarvat, 1992. - B. 28)

## TARIX

5. Аҳмад Дониш. Рисола ёхуд манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. Таржима, изоҳлар ва кириш сўзи муаллифи Қ. Йўлдошев. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2014. – 144 б. (Ahmed Donish. Risola or a brief history of the kingdom of the House of Mangits. The author of the translation, comments and introduction is Q. Yoldoshev. - Tashkent: "National Encyclopedia of Uzbekistan" State Scientific Publishing House, 2014. - 144 p.)

6. Жамолова Д. Домла Икромнинг “Машхур бидъатлар баёни” асари ҳақида // Тарихнинг номаълум саҳифалари (Илмий мақолалар, ҳужжат ва материаллар, хотиралар). VIII китоб. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 158-192. (Jamolova D. About Domla Ikram's work "Statement of famous heresies" // Unknown pages of history (Scientific articles, documents and materials, memoirs). Book VIII. - Tashkent: Akademnashr, 2018. - P. 158-192.)

7. Ражабов З. Маорифатпарвар Аҳмади Дониш. – Душанбе: Ирфон, 1964. – С. 99. (Rajabov Z. Educator Ahmadi Donish. - Dushanbe: Irfan, 1964. - P. 99.)

8. Собрание Восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР (Под редакцией и при участии А. Семенова). Том VI. – Ташкент: ФАН, 1963. – С. 471. (Collection of Oriental Manuscripts of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR (Edited and with the participation of A. Semenov). Volume VI. - Tashkent: FAN, 1963. - P. 471.)

9. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти анжом рақами: 553. 136 варақ; анжом рақами: 2776. 153 варақ (1311/1894 й. Муаллиф дастхати); анжом рақами: 2187. 154 варақ (Кўчирувчи Мир Сиддиқхон Ҳашмат). (Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, serial number: 553. 136 pages; item number: 2776. 153 sheets (author's signature 1311/1894); item number: 2187. 154 pages (Copy by Mir Siddiq Khan Hashmat))

10. Ҳодизода Р. Аҳмади Дониш (Очерки илми бадеи) // Садои Шарқ. -№7. 1966. – С. 68-69. (Hadizoda R. Ahmadi Donish (Fictional scientific essay) // Voice of the East. - #7. 1966. - P. 68-69.)

## Ilova



**Al mutavakkil al illoh Qozi mullo mir Ahmad O'roq binni mullo mir Nosir as Siddiqi**